# 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida jami 2119,6 mlrd. so’m qurilish ishlari bajarilgan bo’lib, o’sish sur‘ati o’tgan yilning mos davriga nisbatan 123,9 %ni tashkil etdi.



Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 43,0 mlrd.so’m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,1 %ni, hamda o’tgan yilning mos davriga nisbatan o’sish sur‘ati 89,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 77,7 % yoki 1647,9 mlrd.so’m to’g’ri keldi va o’tgan yilning mos davriga nisbatan 135,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 20,2% yoki 428,7 mlrd.so’m to’g’ri keldi hamda o’tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1%ni tashkil etdi.

# 2019 yilning yanvar-dekabr oylaridagi qurilish ishlari tarkibi

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami 2119,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,9 %ni tashkil etdi.



# 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)

2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining qariyb 77,7 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga, 20,2 %i norasmiy sektor hissasiga va qolgan 2,1 %i esa yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi.



Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 77,7 %ni tashkil etdi yoki 1647,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,8 % ni tashkil etdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qariyb 43,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,1 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 428,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 20,2 %ga teng bo'ldi. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1 %ni tashkil etdi.



# 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, %da)

Viloyatda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumanida (88,6 %) amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Jizzax shahrida (88,4 %), Paxtakor (78,3 %), Zomin (65,9 %) hamda G'allaorol (61,3 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.




Kichik korxona va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Zafarobod (35,6 %) va Arnasoy tumanlarida (40,6 %) kuzatildi.

Ushbu tumanlar bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mos ravishda ulushlari 64,4 % va 59,4 %ni tashkil etdi.

# 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)




Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Paxtakor, Jizzax shahrida, Zarbdor, Yangiobod tumanlarida kuzatildi. Paxtakor tumanida asosan qurilayotgan namunaviy loyihalardagi turar joylarining qurilish ishlari jadal borishi tufayli o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 146,0 % bo'lishi ta'minlandi.

Jizzax shahrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari va barpo etilayotgan hamda sotish uchun mo'ljallangan turar joylar ko'p miqdorda qurilishi sababli o'sish sur'ati 131,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmidan 76,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 14,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi. Maxsus qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi esa 9,2 %ga to'g'ri keldi.



# 2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari

(mlrd.so'm)

Shahar va tumanlar kesimida bajarilagan qurilish ishlarining eng katta hajmi  Jizzax shahrida 930,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunga izoh sifatida shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko'p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko'ngil ochar maskanlarini barpo etilayotganini ta'kidlash mumkin.




Shu bilan bir qatorda, yuqori sur'atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bu tumanda bajarilgan qurilish ishlari 397,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining asosini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar tashkil qilmoqda.

# 2019 yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi






## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 76,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 14,3 %ni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa (ulushi 9,2 %) o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.

# 2019 yil yanvar-dekabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan ulushi, %da)




Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2026,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,6 %ni, davlat tasarrufidagi qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi esa 4,4 %ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari,

(jamiga nisbatan ulushi, %da)




Jizzax viloyatida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulushi Jizzax shahri hissasiga (44,6 %) to'g'ri keldi.

Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov (14,5 %), G'allaorol (7,1 %) va Paxtakor (6,9 %) tumanlari ham viloyatning qolgan tumanlariga nisbatan yuqori ulushga egaligini ko'rish mumkin.

**Jizzax viloyat statistika boshqarmasi**
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**
Nashr uchun mas'ul: D.Mullajonov
Aloqa telefoni: (0371) 230-83-55